

O'QUVCHILARDA ESHITIB TUSHINISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISHDA TANLANADIGAN MATERIALLARNING TURLARI

<https://doi.org/10.70728/conf.v2.i02.044>

Sa'dullayeva Fayyoz Maxmadoli qizi

Toshkent shahri Shayxontohur tumani

136-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishimizda o'quvchilarda eshitib tushinish malakasini shakllantirishda tanlanadigan materiallarning turlari haqida ma'lumot beriladi. Asosan nazariy va amaliy topshiriqlar turlariga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: eshitib tushinish, nazariy topshiriqlar, amaliy topshiriqlar, "Aqliy hujum", "Mosini top", "Sherigini top", "So'zni top", "aql xaritasi", audio va videomateriallar.

Ona tili ta'limida eshitib tushinish malakasini shakllantirish uchun tanlanadigan materiallarni shartli ravishda nazariy va amaliy turlarga bo'lish mumkin. Nazariy topshiriqlar o'quvchilarda ona tili fanidan olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va baholash uchun xizmat qilsa, amaliy topshiriqlar esa ko'proq o'quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Nazariy va amaliy topshiriqlar ham o'z ichida bir qancha turlarga bo'linadi. Nazariy topshiriqlar qatoriga "Aqliy hujum", "Mosini top", "Sherigini top", "So'zni top" kabi bir qancha metodlarni kiritishimiz mumkin. Bunda o'quvchilar ona tili fanidan egallagan nazariy bilimlarini o'qituvchi tomonidan o'qib eshittirilgan materiallar asosida topshiriq shartiga ko'ra bajarish nazarda tutiladi. Bundan tashqari audio va videomateriallardan foydalangan holda ham ona tili fanining ma'lum mavzulari doirasida topshiriqlar ishlab chiqish mumkin. Bu topshiriqlar orqali o'quvchining nazariy bilimlariga baho beriladi.

Eshitib tushinish bo'yicha amaliy topshiriqlar savol-javob (qisqa yoki kengroq tarzda javob yozish), "aql xaritasi", to'g'ri yoki noto'g'ri (true/false), bo'shliqlarni to'ldirish, nutqni vizual elementlar bilan taqqoslash, hikoyani tinglash va davom ettirish, kontekstdan noma'lum so'zlarning ma'nosini taxmin qilish, matndagi kayfiyatni aniqlash, ma'ruzachining maqsad va kayfiyatni tahlil qilish, taqqoslash, diktant yozish, test ishlash, chizmalar yaratish, turli xil sxema, jadvallar, diagrammalar ustida ishlash, ma'lumotlarni taqqoslash, kichik guruhlarda ishlash, matn asosida rasm chizish kabi topshiriqlardan iborat bo'lishi mumkin.[I. 39-40]

Quyida eshitib tushinish bo'yicha ayrim topshiriqlarga misollar keltiramiz:

Bilamizki, 7-sinfda o'quvchilarga olmosh so'z turkumi va uning ma'no turlari haqida nazariy ma'lumotlar berilgan bo'lib, bu mavzularni mustahkamlashda quyidagi audiomaterialdan foydalanish mumkin. O'quvchilar 2 guruhga bo'linishadi va quyidagi qo'shiq matni eshittiriladi. Qaysi guruh o'quvchilari ko'proq olmosh so'z turkumiga mansub so'zlarni topishsa va bu olmoshlarning ma'no turlarini izohlab berishsa o'sha guruh g'olib hisoblanadi.

Narxi qancha mehrni, ayting?

Hammasini sotib olaman.

Oqibati bor ostonaga

Kerak bo'lsa yotib olaman.

Ey, narxi qancha mehrni, ayting?

Hammasini sotib olaman.

Oqibati bor ostonaga

Kerak bo'lsa yotib olaman.

Qayda mehr bozori ayting?

Olib beray mehr sizlarga.

Kerak bo'lsa yurib uyma-uy,

Ulashaman bag'ri muzlarga.

Narxi qancha mehrni, ayting?

O'zim olay yetsa imkonim.

Yetsa molim, yetmasa jonim,

Narxi qancha mehrni, ayting?

Ey, mehringizdan, mayli, bir hovuch

Bering yetim go'daklar uchun.

Ko'zlarida mehr va ilinj

Mehrga zor yuraklar uchun

Mehr izlab dunyoni kezdim.

Olishimga bormi qarshilar?

O'zinga ham kerakdir biroq

Ilinaman sizga yaxshilar.

Mehr bormi eski bo'lsa ham?

Yo'q degan so'z yomon nechog'liq

Bu o'tkinchi dunyoda mehr

Nahot bo'lsa cho'ntakka bog'liq?

Bilolmadim mehrning narxin
Mehr sotilmas ekan pulga .
Go'yoki biz savdogarlardek ,
Mehr izlab chiqqanmiz yo'lga

Narxi qancha mehrni , ayting?
O'zim olay yetsa imkonim.
Yetsa molim, yetmasa jonim,
Narxi qancha mehrni , ayting?¹⁰

Quyidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni olmoshning qaysi ma'no turiga tegishli ekani o'quvchilar tomonidan izohlab beriladi.

Javob: So'roq, belgilash, o'zlik, kishilik, ko'rsatish olmoshlari.

Bundan tashqari "Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing" topshirig'i ham o'quvchilarda eshitib tushinish malakasini shakllantirish uchun yaxshi samara beradi.

Matansoy degan soyimiz bo'lardi, juda bug'doy bitkuchiydi. Go'ja olib chiqdim-u, birozgina mashoq tersin deb boshini qo'yib yubordim. O'zim g'aram soyasida, g'ir-g'ir shabadada mast bo'lib yotdim, nafas o'tmay uxlab qolibman. Bir mahal uyg'onsam, oftob og'ib qolgan, Do'nanboy, mashoq qayoqda, o'sha turgan joyida hali ham bir xil holatda turipti. Hayron bo'lib o'rnimdan turdim, bir narsa demoqchiday boshini baland ko'tarib kishnadi, faqat orqa oyoqlari bilan tepkilanadi-yu, oldingi oyoqlarini yerdan uzmaydi. Yugurib oldiga bordim, bordim-u oyoqlari ostiga qarab qotib qoldim, oldingi chap oyog'iga qop-qora. chipor cho'l ilon o'ralib yotibdi, o'ng oyog'i esa iloning boshini majaqlagancha ezib turipti [III. 30]

Quyidagi matn o'quvchilarga o'qib eshittiriladi quyidagi ko'rinishda tarqatma o'quvchilarga tarqatiladi.

..... degan soyimiz bo'lardi, juda bitkuchiydi.olib chiqdim-u, birozginatersin deb boshini qo'yib yubordim. O'zimsoyasida, g'ir-g'ir shabadada mast bo'lib yotdim, nafas o'tmay uxlab qolibman. Bir mahal uyg'onsam, oftob og'ib qolgan,, mashoq qayoqda, o'sha turgan joyida hali ham bir xil holatda turipti. Hayron bo'lib o'rnimdan turdim, bir narsa demoqchiday boshini baland ko'tarib kishnadi, faqat orqa oyoqlari bilan tepkilanadi-yu, oldingi oyoqlarini yerdan uzmaydi. Yugurib oldiga bordim, bordim-u oyoqlari ostiga qarab qotib qoldim, oldingi chap oyog'iga qop-qora. o'ralib yotibdi, o'ng oyog'i esa iloning boshini majaqlagancha ezib turipti.

¹⁰ www.google.uz

O'quvchilar nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib matnni to'liq holatini tiklashi kerak bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, eshitib tushunish bo'yicha nazariy va amaliy topshiriqlar o'quvchilarning ona tili fanidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aziza Murodova "5-sinf o'quvchilarida eshitib tushunish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari" magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent-2020
2. www.google.uz
3. 6-sinf o'quvchilari uchun adabiyot darslik-majmua. Toshkent -2009

